



UDK: 911.3:911.374.4

Iqboliddin SULAYMONOV,
Andijon davlat universiteti dotsenti, i.f.n
E-mail: iosulaymanov@mail.ru
ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-8307-3090>

Qo'qon davlat universiteti professori, g.f.d. O.Qo'ziboyeva taqrizi asosida

DEMOGRAPHIC FACTOR AND THE ENVIRONMENT

Annotation

This article highlights the increasing demand for natural resources due to the growing world population, negative human-induced changes in land and water bodies, and some of the ways to eliminate them.

The importance of the development of ecological culture in reducing the weight of anthropogenic impact on the environment is shown. Emphasis is also placed on the importance of studying the heritage of our ancestors in the formation of an ecological worldview in people.

Key words: Adaptation, anthropogenic, global warming, demographic factor, individual, ecological culture, ecological outlook, expansion, ecological component.

ДЕМОГРАФИЧЕСКИЙ ФАКТОР И ОКРУЖАЮЩАЯ СРЕДА

Аннотация

В данной статье освещается растущий спрос на природные ресурсы в связи с ростом населения планеты, негативные антропогенные изменения земель и водных объектов и некоторые пути их преодоления.

Показана важность развития экологической культуры в снижении тяжести антропогенного воздействия на окружающую среду. Также сделан акцент на важности изучения наследия наших предков в формировании экологического мировоззрения у людей.

Ключевые слова: Адаптация, антропогенное, глобальное потепление, демографический фактор, индивидуум, экологическая культура, экологическое мировоззрение, экспансия, экологический компонент

DEMOGRAFIK OMIL VA ATROF-MUHIT

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyo aholisining ortib borishi bilan bog'liq holda tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojning oshib borishi, insonlar ta'sirida quruqlikda va suv havzalarida bo'lgan salbiy o'zgarishlar hamda ularni bartaraf etishning ayrim usullari yoritib berilgan. Atrof-muhitga antropogen ta'sirning salmog'ini kamaytirishda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ahamiyati ko'rsatilgan. Insonlarda ekologik dunyoqarashni shakllantirishda ajdodlarimiz merosining o'rganishning ahamiyatiga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Adaptatsiya, antropogen, global isish, demografik omil, individ, ekologik madaniyat, ekologik dunyoqarash, ekspantsiya, ekologik komponent.

Kirish. XXI asrda insoniyat oldida turga eng dolzarb muammolardan biri aholi sonining jadal o'sishi va tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalasidir. Antropogen jarayonlar dunyoviy miqyosda ekotizimlarga kuchli ta'sir ko'rsatib, geoeologik muammolarni yanada kuchaytirmoqda.

Zero, inson o'z faoliyati davrida tabiatga ta'sir etib, uni o'zgartiruvchi qudratli biogeotexnologik kuchga aylandi. Bu kuchning tabiatga ta'siri, biosfera tabiat evolyutsiyasi jarayoniga nisbatan bir necha bor tezrok namoyon bo'lmoqda.

BMT Atrof-muhit dasturi ma'lumotlariga ko'ra, inson faoliyati Yer shari quruqlik qismining to'rt dan uch qismi, suv havzalarining uchdan ikki qismidagi ekologik muhitni sezilarli darajada o'zgartirgan.

Keyingi besh yil ichida 32 million gektardan ortiq o'rmon maydoni bevosita inson omili ta'sirida qisqargan.

So'nggi 150 yil davomida global isish oqibatida suv havzalaridagi korall riflaridan iborat tirik qoplama deyarli ikki baravarga qisqargan.

Yildan-yilga Dunyo okeanlarining sho'rlanish darajasi ortib bormoqda. Antarktida, Grenlandiya va tog'lardagi muzliklar katta tezlik bilan erimoqda. Bu esa o'z navbatida okean suvlarining ko'tarilishi va suv bo'yiga yaqin hududlarning suv ostida qolish ehtimolini oshiradi.

Antropogen ta'sir natijasida yovvoyi hayvonot dunyosi ham qirilib ketmoqda. Keyingi 10 yil ichida yovvoyi jonivorlarning tur rang-barangligi 25 foizga qisqarishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sh.Mirziyoevning Yangi O'zbekiston strategiyasi asarida dunyoda va O'zbekistonda ro'y berayotgan ekologik muammolar va ularning geografik tarqalishi hamda ularni bartaraf etish uchun aholi ayniqsa yoshlar o'rtasida ekologik madaniyat va dunyoqarashni rivojlantirish, biologik xilma-xillikni saqlash masalalariga doir fikr-mulohazalar yuritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy izlanish jarayonida statistik tahlil usullaridan hamda ijtimoiy-iqtisodiy tahlillardan va qisman qiyosi tahliliy usullardan foydalanilgan.

Tahlil v ananjalar. Inson o'z talablarini qondirish maqsadida tabiat qonunlarini hisobga olmasdan, tabiatni cheklanmagan, uning boyliklari esa bitmas-tuganmas deb hisoblab, tabiatni o'zidan ko'proq foyda olishga urindi. Bunda na har

bir individning talab ehtiyoji chegarasi va darajasi na jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanish jarayonining tashqi tabiiy imkoniyatlari hisobga olindi.

Qolaversa, inson yaratgan va yaratayotgan sun'iy jarayonlar, geografik muhitning keskin o'zgarishi natijasida, hozirda shunday holat sodir bo'lishi mumkinki, unda na inson va na sivilizatsiya bo'lmaydi.

“Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissinin tarbiyalash orqali erishish mumkin”[1].

Binobarin kishilik jamiyati rivojlanishning yangi pog'onasida turar ekan u tabiat ustidan o'zini hukmron deb his etishi kanday salbiy okibatlariga olib kelganligini his qila boshladi. Jumladan, uning tabiiy zaxiralarni miqdoran ko'paytirish imkoni tugaganligi va eng muhimi, inson yangi tarixiy davrda adaptatsiya holati o'zgarishi va yangi tabiiy muhit tubdan o'zgargan sharoitga mos keladigan bo'lishini his qilishga majbur bo'lmoqda.

Inson faoliyatini hisobga olmasdan va antropogen ta'siri tufayli tabiatning qay darajada o'zgarishini aniqlamasdan biosferada kishilik jamiyatining kelgusida faol ravishda umr ko'rishini tasavvur qilish qiyin. Chunki insoniyatning ijtimoiy taraqqiyoti tabiatning global muammolarini oqilona yechimiga bog'liq. Global muammolar shuning uchun ham globalki, u nafaqat insonning yashash doirasi, balki uning faoliyatining tabiatga ta'siri va bu ta'sir tufayli sodir bo'layotgan global o'zgarishlar natijasida tabiiy muhitning kelgusi taqdirini ham hisobga olish zarur[6].

O'z navbatida tabiiy jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarning ijtimoiy tizimida demografik jarayonlarning o'rni va ahamiyatini ham unutmash kerak.

XX asrning boshlarida yer yuzi aholisi 1,6 milliard kishidan iborat bo'lsa, asr oxiriga kelib, ya'ni 1999-yilda 6 milliardga yetdi.[5] Hozirda 2025-yil aprel holatiga esa 8,2 milliarddan ortdi. Endilikda aholi soni muttasil ortib bormoqda. Bu hol murakkab iqtisodiy muammolar bilan bir qatorda, nihoyatda muhim global va mintaqaviy ekologik muammolarning sodir bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Hozirning o'zidayoq aholisi 1 milliarddan ortiq bo'lgan rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan tiklanmaydigan tabiiy zaxiralarning butunlay tugash xavfi tug'ilganligi va tabiiy muhitning keskin darajada ifloslanishi sababli sayyorada ekologik muvozanatning global ravishda buzilishi ehtimoldan yiroq emas. Muayyan ma'noda ana shunday keskin vaziyat tabiiy zaxiralarga boy bizning respublikamizda ham yuzaga kelmaydi deb aytib bo'lmaydi. Binobarin Markaziy Osiyo respublikalarining umumiy aholisi 84 milliondan ortiq bo'lsa, shundan deyarli 38 milliondan ortiq O'zbekiston hissasiga to'g'ri keladi[11].

Demak, insonlarda ekologik dunyoqarashni shakllantirishda ularga real demografik holatni dunyo miqyosida va respublikamizdagi o'ziga xosliklarni ular ruhiyatiga singdirib borish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga ekologik inqirozga sabab bo'lgan quyidagi omillar mohiyatini ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil etish zarur:

a) insoniyat faoliyati umumjahon xarakterini kasb etib, nafaqat biosferani, balki kosmik fazoni, uning cheksiz ekspansiya qilinishi tendensiyalarini ham qamrab oladi;

b) biosferaning ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan jamiyat ijtimoiy ehtiyojlarining o'sishi orasida tabiiy-tarixiy ziddiyatlar paydo bo'ldi. Bularni xal etish uchun insoniyatning ilmiy-texnikaviy, xo'jalik imkoniyatlarini, tabiiy zaxiralarning tobora kattaroq qismini maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirish zarur ekanligi ma'lum bo'lib qoldi;

v) inson yashab turgan tabiiy muhit salbiy o'zgarishlarga duchor qilinayotganligi tarixan tarkib topgan tabiiy muvozanat va munosabatlarning buzilishiga sabab bo'ldi. Bu hol esa umumjahon ekologik tizimlar barqarorligining buzilishiga olib keldi;

g) ekologik g'oyalar inson madaniyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, jamiyat va inson faoliyatining barcha sohalariga katta ta'sir eta boshladi.

Yuqoridagi tahlillar shundan dalolat bermoqdaki ekologik muammolarni hal etish uchun ayrim shaxslar tomonidan olib boriladigan yoki ba'zi bir davlatlarda o'tkaziladigan ilmiy-amaliy ishlar, anjumanlarga bog'lik bo'lmay, balki butun dunyo xalqlarining o'zaro kelishuvlari asosida xal etiladigan global muammo hisoblanadi. Shunga ko'ra ekologik muammolarni yechimini topish uchun nazarimizda, eng avvalo, insonning tabiat bilan munosabatini ijobiy ma'noda ta'minlashga yordam beruvchi ekologik dunyoqarashni boyitish kerak.

Noqulay ekologik vaziyatlar turli xil kasalliklar sababchisi bo'lmoqda, deb dunyoga jar solar ekanmiz, biz ham uning ma'lum darajada sababchisi ekanligimizni ko'pincha unutib ko'yamiz. Dunyo miqyosida yo'l qo'yilayotgan ekologik xatoliklar har bir ekologik komponentga, jumladan, insonga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Tibbiy geografiya ma'lumotlariga nazar tashlar ekanmiz yer yuzasining turli hududlarida o'sha joydagi ekologik holatdan kelib chiqib shu hududga xos bo'lgan kasalliklar yuzaga kelganligini guvohi bo'lamiz. Sog'lom fikrli har bir inson tabiiy muhit qanchalik toza havo, yer usti va yer osti suvlari, tuproq, o'simlik, hayvonot olamining darajasi tabiiy meyorda bo'lsa, inson sog'ligi ham shuncha mustahkam va barqaror bo'lishini anglay boshladi va amal qila boshladi. Zero, tabiatning o'zi hech kachon himoya qobig'i bo'lgan – ozon qobig'ini yemirmaydi, freonlarni ishlab chiqarmaydi, cho'llanishga, tuproqning sho'rlanishiga olib kelmaydi. Yerning barcha ekokomponentlari, ekotizimlari ham o'zaro bir-birlariga bog'lik tarzda rivojlanadi. Ushbu tadrijiy bog'likliklar ma'lum meyorda bo'lganligi sababli tashqaridan bo'ladigan inson ta'siri, ularning barkarorligiga ma'lum vaqt mobaynida uzluksiz ta'sir ko'rsatib boradi. Natijada, ekologik komponentlarning ta'sir kuchi borgan sari kamayib, tabiiy-biologik meyorlar buzila boshlaydi, ekotizimning biomahsuldorligiga putur yetadi, tabiatning avvalgi holiga kaytishi, o'z-o'zini tiklash imkoniyati yo'qolib, insonning yordamiga muhtoj bo'lib qoladi. O'z vaktida zudlik bilan berilgan yordam tabiat kasalligining oldini olishi mumkin, buning uchun, inson ekokomponentlarning o'lchov va ekologik meyorlarini o'rganishi va ularga amal qilishi lozim bo'ladi[7].

Tabiatni muhofaza qilish masalasi ko'p qirrali muammodir. Bu masalani hal etishda ekologik bilimlarni keng omma e'tiboriga yetkazish, yoshlarni ekologik jihatdan tarbiyalashni yo'lga qo'yish lozim. Buni ko'pgina xorijiy mamlakatlar (Finlyandiya, Shveysariya, Avstriya va boshqalar) misolida ko'rish mumkin.

Ekologik tarbiyaning diqqat markazida tabiatga extiyotkor munosabatda bo'lishni o'rganish yotadi. Har bir inson tabiat bag'rida yashirilib yotgan barcha boyliklar, ko'z o'ngida yastanib turgan barcha go'zalliklar unga ham tegishli ekanligini tushunishi va uni avaylab asrashi o'z burchi ekanligini anglashi kerak.

Insonning atrof-muhitga bo'lgan munosabati, uning ekologik madaniyati, ekologik dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir. Ekologik ongni ekologik tarbiya shakllantiradi va rivojlantiradi. Ekologik tarbiya ko'magida yoshlarda jamiyatimizdagi ekologik vaziyat haqida tasavvur hosil qilinadi. Ularning atrof-muhit to'g'risidagi tushunchalari o'zgaradi, rivojlanadi, ularning ma'naviyatida sifat o'zgarishlari sodir bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda aholida va ayniqsa yoshlarda atrof-muhitga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartirishda ekologik tarbiyani, ekologik madaniyatni, ekologik dunyoqarashni shakllantirish va takomillashtirishda barcha vositalardan foydalanish, bog'cha, maktab, o'rta va oliy o'quv yurtlari, tarbiyachi, o'qituvchilar, mahalla oqsoqollari, rahbar xodimlar, radio, televideniya, gazeta va jurnallar hamkorligi zarur.

Respublikamizda vujudga kelgan ekologik sharoit yechimida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimi munosib hissa qo'shmog'i lozim. Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida institutlar va universitetlarni bitirib chiquvchi oliy ma'lumotli mutaxassislar alohida o'rin tutadilar. Demak, oliygohlarimizda talabalarning ekologik bilimlarini yanada chukurlashtirish dolzarb masala bo'lib turibdi[2].

Umuman aholi o'rtasida ekologik madaniyatni va ekologik savodxonikni oshirish;

Resurslardan tejamkor va samarali foydalanish;

Chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish kabilar ham muammoni bartaraf etishda muhim o'in tutadi.

Qolaversa, ekologik dunyoqarashni rivojlantirishda milliy qadriyatlar, diniy e'tiqodlar, urf-odatlarimiz ham muhim rol o'ynaydi. Ajdodlarimiz ona yerni, suvni, «rizq-ro'zimiz» deb bilgan. Ekin eqilishi lozim bo'lgan yerlarga alohida mehr bilan ishlov berilgan, bir tomchi suv behuda sarflanmagan. Suvga tupirish, unga iflos narsa tashlash gunoh hisoblangan. Erta bahorda ariq, kanal, zovur va hovuzlar tozalangan. Bunday xalq hasharlarida yoshlar qariyalardan urf-odatlarimizni, an'analarimizni o'rganishgan, ularning mehnat sirlaridan voqif bo'lishgan. Xalqimizning mana shunday an'analarini tiklash muhim vazifadir.

ADABIYOTLAR

1. SH.M.Mirziyoev, Yangi O'zbekiston strategiyasi, Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021 yil.
2. Abirkulov Q., Ekologik bilim va tarbiya. Iqtisod va hisobot. 1997, №4
3. Bekmirzaev Sh. "Barqaror rivojlanish va tabiatni muhofaza qilish". – Samarqand, 2020
4. Malikova O. Talabalarda ekologik muhitni shakllantirish. Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar jurnali, №3, 2007
5. А.А.Анохин, Д. В. Житин., География населения с основами демографии : учебник для академического бакалавриата – М.: Издательство Юрайт, 2017. – 279 с.
6. Mustafоеv S., O'rovov S., Suvonov P. Umumiy ekologiya. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent, 2006
7. Salomova X. Tabiat musaffo – avlodlar sog'lom. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. №1/2, 2001 yil
8. Tojjeva Z.N., Do'smonov F.A., Demografiya – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020.
9. Tursunov A. "Deografiya va geoeкологиya asoslari". – Toshkent: Fan, 2021
10. Yunusov K. Ekologik madaniyatning yuksalishida nodavlat tashkilotlarning ishtiroki. Milliy g'oya-yuksak ma'naviyatli shaxs kamolotining negizi. Andijon, 2010
11. Axborot manbalari
12. www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi